


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik sub'yektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar - iyun oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar - iyun oylarida, birlikda)









Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **13,3** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
O‘rmon xo‘jaligi
Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



133

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 690

Ishlab chiqarish sanoati

17

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

48

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 888 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 foizga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 104,7 foizga (jami sanoatdagi ulushi 94,9 foiz), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 93,0 foizga (jami sanoatdagi ulushi 3,4 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 106,3 foizga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 foiz), o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 123,1 foizga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 foiz), ko'payishi kuzatildi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




0,1 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




5,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




12,5 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi



Xususiy korxonalar




17,9 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 2 232 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 485 taga yoki 127,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 020 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 455 taga yoki 129,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 474 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91 taga yoki 123,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 15 564 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 194 taga yoki 116,4 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 574 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 843 taga yoki 114,5 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 819 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga yoki 100,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra 213 tani tashkil etib, ulardan 212 tasi yoki 99,5 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 10 taga yoki 95,5 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar - iyun oylarida Jizzax viloyatida 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



110
yashash bo'yicha xizmatlar



1 402
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 512 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,7 foizga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 108,3 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 foiz), yashash bo'yicha xizmatlarning - 114,6 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 foiz) ga oshdi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

13




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	99	164	190	222	212
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14	28	29	39	36
Sanoat	61	91	103	121	118
Qurilish	3	8	8	10	12
Savdo	12	20	28	29	23
Tashish va saqlash	3	4	4	6	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	5	4	3	2
Axborot va aloqa	1	3	4	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	1	2	2
Boshqa turlar	5	5	9	9	11

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Jizzax viloyati	212	137	75
Jizzax shahri	66	43	23
tumanlar:			
Arnasoy	8	5	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	19	12	7
Sharof Rashidov	15	10	5
Do'stlik	7	4	3
Zomin	15	8	7
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	2	7
Mirzacho'l	5	3	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	32	26	6
Yangiobod	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 66 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,1 foiz), Forish tumanida 32 ta (15,1 foiz), G'allaorol tumanida 19 ta (9,0 foiz), Zomin tumanida 15 ta (7,1 foiz), Sharof Rashidov tumanida 15 ta (7,1 foiz), Yangiobod tumanida 13 ta (6,1 foiz), Baxmal tumanida 10 ta (4,7 foiz), Zafarobod tumanida 10 ta (4,7 foiz), hamda Zarbdor tumanlarida 4 ta (1,9 foiz) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (27,9 foiz), Sharof Rashidov (14,5 foiz), G'allaorol (8,8 foiz), Zomin (8,1 foiz), Forish (6,9 foiz), Baxmal (6,5 foiz), Zarbdor (5,0 foiz), Do'stlik (4,7 foiz), Paxtakor (4,7 foiz), Mirzacho'l (3,9 foiz), Arnasoy (3,4 foiz), Zafarobod (3,0 foiz) va Yangiobod (2,4 foiz) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil yanvar - iyun oylarida, birlikda)


2022-yil yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (22,5 foiz), Sharof Rashidov (12,1 foiz), G'allaorol (10,1 foiz), Zomin (8,6 foiz), Do'stlik (8,4 foiz), Baxmal (7,7 foiz), Forish (7,2 foiz), Zarbdor (5,5 foiz), Paxtakor (4,7 foiz), Mirzacho'l (4,1 foiz), Arnasoy (3,2 foiz), Zafarobod (3,0 foiz), Yangiobod (2,9 foiz) tumanlari ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (32,8 foiz), Sharof Rashidov (17,7 foiz), Zomin (7,1 foiz), Baxmal (6,9 foiz), G'allaorol (6,1 foiz), Forish (6,1 foiz) Do'stlik (5,0 foiz), Zarbdor (4,7 foiz), Mirzacho'l (3,4 foiz), Arnasoy (3,3 foiz), Paxtakor (3,2 foiz), Zafarobod (2,1 foiz) va Yangiobod (1,5 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2022- yilning yanvar - iyun oylarida, birlikda)





2022- yil yanvar- iyun oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (31,4 foiz), G'allaorol (14,1 foiz), Paxtakor (11,2 foiz), Zomin (10,3 foiz), Sharof Rashidov (9,3 foiz), Zarbdor (8,6 foiz), Do'stlik (4,9 foiz), Baxmal (4,0 foiz), Zafarobod (3,0 foiz), Arnasoy (1,5 foiz), Yangiobod (0,8 foiz), Mirzacho'l (0,6 foiz), Forish (0,2 foiz), tumanlari ulushni qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar - iyun oylarida, birlikda)

O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1 ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24